



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-mart*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 329 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 258 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-mart oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 832,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 110,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 148,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 684,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 043,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-mart oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	4832,3	110,2
Termiz sh.	837,6	109,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	215,9	108,6
Angor	225,7	109,4
Bandixon	75,9	107,5
Boysun	202,4	109,5
Muzrabot	211,9	114,3
Denov	1049,9	110,8
Jarqo'rg'on	255,4	109,4
Qumqo'rg'on	229,4	110,5
Qiziriq	217,1	108,9
Sariosiyo	201,9	110,4
Termiz	102,2	111,9
Uzun	226,2	112,3
Sherobod	296,8	111,2
Sho'rchi	484,0	109,2


2024-yilning yanvar-mart oyida 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan viloyatning Muzrabot (114,3 %), Uzun (112,3 %) va Termiz (111,9 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-mart)**




So'ngi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)
(2023-yil, 2024-yil yanvar-mart oylari)**



2024-yilning yanvar-mart oyida o'sish sur'ati **110,2 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 21,6 % bilan 1 049,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,6 % bilan 75,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm







Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 684,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 10,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 11,8 % ga oshdi va 148,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,5 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (7,4 %), Denov (4,6 %), Jarqo'rg'on (2,6 %) va Termiz (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.

3,1 %


96,9 %

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda*



2024-yilning yanvar-mart oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 675,3 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 107,5 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (4 140,5 ming. so‘m), Denov (2 492,1ming. so‘m) va Sho‘rchi (2 112,5 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1043,9	118,4
Termiz sh.	83,5	175,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	91,9	104,8
Angor	35,6	117,6
Bandixon	51,5	102,8
Boysun	68,0	127,1
Muzrabot	99,8	135,9
Denov	108,3	121,5
Jarqo'rg'on	55,1	111,8
Qumqo'rg'on	63,4	94,6
Qiziriq	75,3	116,0
Sariosiyo	81,5	113,5
Termiz	30,4	113,7
Uzun	73,3	112,7
Sherobod	42,9	141,3
Sho'rchi	83,4	111,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-mart)**














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024-yil yanvar-mart)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 043,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 118,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 474,9 mlrd. so'mni (144,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 569,0 mlrd so'mni ya'ni (102,7 %) tashkil etdi.













2024-yilning yanvar-mart oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 474,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (234,0 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>234,0 mlrd. so'm</p>  <p>49,3%</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>54,8 mlrd. so'm</p>  <p>11,5 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>46,1 mlrd. so'm</p>  <p>9,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>14,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>25,1 mlrd. so'm</p>  <p>5,3 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>15,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>11,0 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>14,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>7,6 mlrd. so'm</p>  <p>1,6 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>17,0 mlrd. so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>10,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>24,4 mlrd. so'm</p> <p>5,2 %</p>

2024-yilning yanvar-mart oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 569,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 416,8 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 146,3 mlrd. so'mni, otlar – 4,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>275,5 mlrd. so'm</p>  <p>48,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>78,5 mlrd. so'm</p>  <p>13,8 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>62,8 mlrd. so'm</p>  <p>11,0 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>124,2 mlrd. so'm</p>  <p>21,8 %</p>	<p>Otlar</p> <p>4,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>22,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 412 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 411 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	119,4	108,7
Termiz sh.	46,2	112,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2,7	108,8
Angor	3,5	108,2
Bandixon	0,7	103,4
Boysun	2,4	106,8
Muzrabot	3,2	107,2
Denov	18,6	102,6
Jarqo'rg'on	7,4	111,6
Qumqo'rg'on	3,3	108,5
Qiziriq	2,4	111,0
Sariosiyo	5,2	112,7
Termiz	8,6	100,8
Uzun	3,0	108,6
Sherobod	7,1	105,9
Sho'rchi	5,1	114,8

2024-yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 119,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	254,6	100,0
Termiz sh.	75,9	29,8
tumanlar:		
Oltinsoy	1,0	0,4
Angor	6,4	2,5
Bandixon	0,1	0,1
Boysun	0,7	0,3
Muzrabot	0,4	0,1
Denov	138,6	54,4
Jarqo'rg'on	15,3	6,0
Qumqo'rg'on	0,8	0,3
Qiziriq	0,8	0,3
Sariosiyo	2,2	0,8
Termiz	4,5	1,8
Uzun	0,3	0,1
Sherobod	1,1	0,5
Sho'rchi	6,5	2,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (138,6 mlrd. so'm) va Termiz shahri (75,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024-yilning yanvar-mart oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 254,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,1 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 59,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 33,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 195,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –63,5 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 213,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 121,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 92,7 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 165 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 146 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinsoy (186,0 %) , Angor (135,7 %) tumanlarida va Termiz sh. (161,9 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1213,8	106,4
Termiz sh.	315,3	119,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	34,2	132,6
Angor	18,1	114,6
Bandixon	15,9	120,4
Boysun	9,3	108,7
Muzrabot	68,8	106,2
Denov	415,7	105,1
Jarqo'rg'on	53,6	101,2
Qumqo'rg'on	26,8	64,3
Qiziriq	6,5	108,3
Sariosiyo	40,1	108,3
Termiz	91,4	114,7
Uzun	17,5	75,1
Sherobod	23,3	86,0
Sho'rchi	77,3	90,8